

MARKAZIY OSIYO JAHON SIVILIZATSIYASINING
AJRALMAS QISMI

Yusupov Burhoniddinn Azamjon o'g'li

ADPI talabasi.

+998948464003

Maxmudova Zulfiya Alimjanovna

ADPI assisent o'qituvchi

*“Biz -mulki Turon, Amiri Turkistonmiz. Biz kim
-mamlakatlarning Eng qadimisi va eng ulug'i,
Turkning bosh bog'inimiz”¹*

AMIR TEMUR

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo Insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o'choqlaridan biri bo'lganligi, hamda uning rivojlanish tarixida nechog'lik muhim ro'l tutgani to'g'risida qisqacha yoritib o'tildi. Yurtimizdagi ilk davlatlar bo'lmish So'g'd Xorazm Baqtriya davlatlari haqida qisqacha ma'lumotlar olishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: Avesto, feodal, O'zbekxon, Sivilizatsiya, madaniyat xristianlik, So'g'd, Xorazm, Baqtriya, Aleksandr makedonskiy.

Аннотация: В данной статье было кратко объяснено, что Центральная Азия была одним из древних центров человеческой цивилизации, и какое значение она имела в истории ее развития. Вы можете получить краткую информацию о Согдийской Хорезмской Бактрии, первых государствах нашей страны.

Ключевые слова: Авеста, феодализм, Узбек-хан, Цивилизация, культура, христианство, Согд, Хорезм, Бактрия, Александр Македонский.

Abstract: In this article, it was briefly explained that Central Asia was one of the ancient centers of human civilization, and how important it was in the history of its development. You can get brief information about Sogd Khorezm Bactria, the first states in our country.

Key words: Avesta, feudal, Uzbek Khan, Civilization, culture, Christian, Sogd, Khorezm, Bactria, Alexander the Macedonian.

Kirish: Bilamizki dunyo sivilizatsiyasi ming yillar ilgari yuz bergan. Butun dunyo sivilizatsiyasi va qadimgi dunyo tarixi hozirgi kungacha ham to'liq o'rganilmagan davrlar qatoriga kiradi. O'rta Osiyo sivilizatsiya tarixi ham ilk sivilizatsiyalar qatorida turadi. O'rta Osiyo sivilizatsiyasi qariyb miloddan avvalgi 1-

¹ Vatan Tarix (birinchi kitob) — R. Shamsudinov, Sh. Karimov, S. Hoshimov. Toshken-2020.

mingyilliklarga borib taqaladi va bu sivilizatsiya jahon sivilizatsiyasiga kata hissa qo`shgan.

“Biz o`z tariximizni yo`qqa chiqara olmaymiz. Bu o`z tariximizda ham qahramona, ham fojiali sahifalar ko`p bo`lgan. Axir, keksa avlodlarning, otabobolarimizning kurashi va mehnati inkor etib bo`ladimi? Ular yarim feodal holdagi qoloq mamlakatni ijtimoiy va ilmiy texnikaviy jihatdan taraqqiy etgan zamonaviy darajada ko`tardilar. Bu aniq-ravshan dalilini kech kim rad qila olmaydi.

Ayni vaqtda sotsialistik qurilishning ko`pkina bosqichlarda qo`pol xatolar va buzilishlarga yo`l qo`yilganini ham hech kim narsa shubha ostiga qo`ya olmaydi”²

Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug` ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham albatta bo`ladi.

Asosiy qism: Amudaryo va Sirdaryo bo`ylari boylarida ibtidoiy davrdan boshlab odamlar yashab kelayotgan bo`lsa lekin “O`zbek” atamasining va etnik xolatta to`liq shakllanishi ilk o`rta asrlarga borib taqaladi.

“Biz-jahon maydonida kuni kecha paydo bo`lgan xalq emasiz. Bizning millatimiz, xalqimiz ko`hna Xorazm zaminida „Avesto“ paydo bo`lgan zamonlardan buyon o`z hayoti, o`z madaniyati, o`z tarixi bilan yashab keladi. O`zbek millati O`zbekxon o`zbek millatini nomini o`ziga nom qilib olgan bo`lsa ajab emas”³.

Ma'lumki, dastlabki sivilizatsiyasalar, qadimgi sharqda so`ngra Yunonistondagi Kirit orolida Minoy sivilizatsiyas bilan boshlangan. Keyinchalik Sivilizatsiya O`rta Osiyo, hozirgi O`zbekiston hududida ham paydo boldi. Buni “Avesto” kitobi ham isbotlaydi

Har bir mintaqada davriy nuqtai nazaridan ertaroq yoki kechroq, o`ziga xos shaklda shaklanib, rivojlanib borgan. Tarixiy, ilmiy tadqiqotlar Markaziy Osiyo Insoniyat sivilizatsiyasining muhim tarmoqlaridan biri ekanligidan dalolat bermoqda. Dunyodagi, Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi, Islom sivilizatsiyasi, Antik Yunon-Rim sivilizatsiyasi, Xristian sivilizatsiyasi singari buyuk sivilizatsiyasalar qatoriga Markaziy Osiyo sivilizatsiyasini ham qoshsak maqsadga muvofiq bo`lar edi. “O`rta Osiyo sivilizatsiyasi turli hududlarda turli davrlarda paydo boldi va rivojlandi. Misol uchun, janubiy hududlarda yashagan qadimgi qabilalar mil. avv. VI ming yillikdayoq dehqonchilikka o`tib unumdor xo`jalikni rivojlantirgan bo`lsalar, bu davrda shimoliy hududlardagi qabilalar asosan ovchilik, baliqchilik va qisman ziroatchilikning ilk shakllari bilan shug`ullanganlar. Bu notekislik jarayoning tabiiy geografik sharoitlari va o`zaro munosabatlar bilan izohlash mumkin. Bu o`rinda O`rta Osiyoning cho`l va dasht hududlarida hamda tog`oldi va daryo vodiylari hududlarining rivojlanish darajasidagi madaniy notekislikni taqqoslab ko`rish (Kopetdog`, Hisor,

² R. Shamsidinov, X. Mo`minov O`zbekistonda tarixi— „Akademnashr“-2019

³ Karimov I.A. O`z kelajagimizni o`z qolimiz bilan qurmoqdamiz. "Turkiston" gazetasi muxbirining bergan savollarga javoblari // Turkiston 1999-yil 2-fevral.

Zarafshon tog‘oldi hududlari hamda Qizilqum, Qorqum, Qashqadaryo va Zaravshon vohasining dasht hududlari)muhimdir.

Undan tashqari, O‘rta Osiyoda turli-tuman madaniyat yaratkan qadimgi aholining neolit davridayoq, ya'ni mil.avv.VI -IV ming yilliklarda o‘zaro munosabatlari va bu aholining Sharqdagi, dastavval Old Osiyodagi boshqa qadimgi sivilizatsiya o‘choqlari bilan uzviy aloqada bo‘lishi ham mahalliy sivilizatsiyasining katta tasir ko‘rsatdi”⁴. Makadoniya podshosi Aleksandr Makedonskiy, mil.avv.330-yilda Ahmoniyar hukumdori Doro III ni mag‘lub etib,mil.avv.330-329-yillarda hozirgi Afg‘oniston janubiy tomonlarini egallab,Hindiqush orqali O‘rta Osiyoga yurish boshlagan va mil.avv.327-yilda: Baqtirya, Sug‘diyona,Marg‘iyona, hozirgi Bekobod va Xo‘janddan iborat Sirdaryo bo‘ylarini egallab oladi. Natijada, O‘rta Osiyo sivilizatsiyasi bilan Yunon - Rim sivilizatsiyasiga qorishib ketdi.

Arablar VIII asrdan O‘rta Osiyoni zabt etilar va Islom dini madaniyati yoydilar.shu davrdan boshlab, bu ikki Sivilizatsiya qorishib ketti Islom sivilizatsiyasi Arab diyorida vujudga kelgan bolsada.Aynan u O‘rta Osiyo hududida o‘z taraqqiyotining cho‘qisiga chiqdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.Aynan bizning ajdodlarimiz: *Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy (783-850)*, *Ahmad ibn Abdulloh al - Marvaziy(780-880)*, *Ahmad al-Farg‘oniy (797-865)*,*Abu Nasr Forobiy (873-950)*,*Abu Bakr Muhammad Narshaxiy (889-959)*, *Abu Ali ibn Sino(980-1037)*,*Muhammad az-Zamaxshariy(1075 -1144)*, *Burhoniddin Marg‘inoniy (1123-1197)*,*Abu Abdullo Rudakiy (858-941)*,*Daqiqiy (956-980)*, *Abulqosim Firdavsiy (934-1030)*,*Mummad Kashg‘ariy(XI)*,*Yusuf Xos Hojib (1020)*,*Imom al-Buxoriy (810-870)*,*Abu Iso At-Termiziy (824-892)* singari zotlar, birinchi Renasans (Uyg‘onish) davrini boshlab berdilar.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki,O‘rta Osiyo sivilizatsiyasi Barcha halqlar sivilizatsiyasiga o‘z tasirini o‘tkaza oldi deb hisoblaymiz. Mustamlaka davrida xalqimizni aldab, yerga urib ,bu xalqning o‘tmishi qadimiy emas,o‘z sivilizatsiyasiga ega emas, taraqqiyotni madaniyatni biz olib kirdik degan degan fikirlari o‘rinsiz va haqiqadan juda yiroq.Olimlarning fikricha O‘rta Osiyo hududida odamlar bundan 1 million yil,hatto undan ham qadimiyroq deb hisoblaydilar, buning yorqin dalili,1958-yilda akademik A.P. Okladnikov tomonidan topilgan, Farg‘ona viloyati Selung‘ur makonidan topilgan “Fergantirob” odamidir.Markaziy Osiyo hududida insonlar qadim zamonlardan buyon yashab kelmoqdalar va o‘ziga hos sivilizatsiyasi yaratilar bu sivilizatsiyasining boshqa Sivilizatsiyalardan farqi shudaki bu nafaqat O‘rta Osiyo xalqlari tarixi, baliki barcha xalqlar tarixiga o‘z tasirini o‘tkazdi.Salib yurishlari Yevropa xalqlari uchun dunyoga darcha boldi, Sharq sivilizatsiyasidan juda ko‘p narsalardi o‘zlashtirish natijasidan Yevropada ilm-fan,san‘at Ishlab chiqarish

⁴ R.Shamsidinov,X.Mo‘minov: O‘zbekistonda tarixi— „Akademmannashr"-2019

rivojlandi. Qoloq Xiristiyan sivilizatsiyasi aynan shu sabab rivojlandi va hozirgi zamon sivilizatsiyasi vujudga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoev “Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy goyamizning poydevoridir” 2021 yil.
2. Karimov I.A. “O‘z kelajagimizni o‘z qolimiz bilan qurmoqdamiz.” Turkiston" gazetasi muxbirining bergan savollarga javoblari // Turkiston 1999-yil 2-fevral.
3. Karimov.I.A “Yuksak ma`naviyat –yengilmas kuch”. 2008 yil
4. Karimov.I.A “Tarixiy xotirasis kelajak yo`q”.1999 yil
5. R.Shamsidinov, X.Mo‘minov O‘zbekistonda tarixi— „Akademannashr"-2019
6. Vatan Tarix (birinchi kitob)—R.Shamsudinov, Sh.Karimov, S.Hoshimov.Toshken-2020.